

“SIRATU ASRORI IL-ILOHIYYA” RISOLASIDA RITMIK DOIRALAR VA QARAMA-QARSHI USULLAR

Amonov D. A.

San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Diyor005@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola “Siratu asrori il-Ilohiyya” risolasiining “Qarama-qarshi usullar kelib chiqishi haqida” nomli yettinchi bobida keltirilgan ritmik doiralarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada Xazaj, Ufor, Turk zarb va Muxammas kabi asosiy usullarning tuzilishi, ularning naqra va zarbalar asosidagi ritmik formulalari yoritilgan. Shuningdek, ushbu usullarning she'riy vaznlar (bahr, xazaj) bilan bog'liqligi tahlil qilinib, “Siratu asrori il-Ilohiyya” risolasiidagi ma'lumotlar Najmiddin Kavkabiyy, Abdurahmon Jomiy va Xusayniy risolalari bilan qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Iyqo, ritmik doiralar, Xazaj, Ufor, Turk zarb, Muxammas, bahr, naqra, Najmiddin Kavkabiyy, Abdurahmon Jomiy, qiyosiy tahlil.

Sharq musiqa nazariyasi tarixida ritm va usul masalalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'rta asrlar musiqa risolalarida ritmik tizimlarning nazariy asoslari, ularning amaliy ijro bilan uzviy bog'liqligi hamda she'riy vaznlar bilan aloqadorligi tahlil qilingan. Ana shunday muhim manbalardan biri hisoblangan “Siratu asrori il-Ilohiyya”¹ risolasi nafaqat lad va ohang tizimlari, balki ritmik doiralar va usullar haqidagi qarashlari bilan ham e'tiborga loyiqdir.

Mazkur risolaning “Qarama-qarshi usullar kelib chiqishi haqida” nomli yettinchi bobi ritmik tuzilmalar evolyutsiyasini yoritishda alohida o'rin tutadi. Unda keltirilgan ritmik doiralar, xususan, Xazaj, Ufor, Turk zarb va Muxammas kabi usullar Sharq musiqasida keng qo'llanilgan va nazariy jihatdan asoslab berilgan muhim tizimlardandir. Ushbu usullar nafaqat zarb va naqralarning muayyan tartibda

¹ No ma'lum muallif, №8739/III: Risolaning nomi ham noma'lum. Qo'lyozma, O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti №8739/III, B. 105-111.

joylashuvi orqali, balki ularning she'riy vaznlar bilan uyg'unligi orqali ham o'ziga xos musiqiy-estetik mazmun kasb etadi.

Usullarning ichki tuzilishi, zarbiy formulalari hamda she'riy bahrlar bilan bog'liqligi ochib beriladi. Bundan tashqari, risoladagi nazariy qarashlar boshqa muhim manbalar — Najmiddin Kavkabi, Abdurahmon Jomiy va Xusayniy asarlaridagi fikrlar bilan qiyosiy tahlil asosida o'rganilib, umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlanadi.

1. Xazaj usuli - Risolada keltirilishicha, Xazaj usuli “har ikkisi bitta zarbi muxammas tarkibidir va u zarb ul-qadim bahri bo'ldi”. Muallif Xazajni sakkiz bo'limga quyidagicha bo'ladi: tan, tanan, tan, tan, tanan, tan, tanan, tan.

“Xazaj” atamasi mumtoz adabiyotimiz bilan bir qatorda fors-tojik adabiyotida qo'llaniladigan vaznlardan biridir. Xazaj bahri she'riyatimizda qo'llanish ko'lami jihatidan ramal bahridan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Uning asosini “mafoiylun” aslining aynan takrori tashkil qiladi. Alisher Navoiy “Mezonul avzon” asarida hazaj bahriga mansub 46 vaznni sanab o'tgan. Bobur esa “Muxtasar” asarida hazaj bahri yuz besh vazn, oltmish bir musta'mal, qirq to'rt muxtara', o'n to'qqiz musta'mali matbu' ekanligini ta'kidlab, 105 vaznning har birining xususiyatlarini forsiy va turkiy misollar bilan ko'rsatib bergan.

Kavkabi o'zining “Risolai musiqiy”ida “Xazaj doirasini uch zarba va sakkiz naqra ikki sabab-i xafif va bitta fasila-yi sug'radan, tan tananan tan kabidir”² deb ta'riflaydi. Jomiy esa o'z risolasida Xazajni bir necha ko'rinishda beradi: tez xazaj (tana-tana-tana), yengil xazaj (tan-tan-tan) va og'ir xazaj (tananan-tananan-tananan).

2. Ufor usuli - Risoladagi navbatdagi bahr Ufor bo'lib, muallif uni olti naqrasi deb quyidagicha tasvirlaydi: tan, tinan, tan, tinan. “Tinan” atamasi boshqa risolalarda uchramaydi, bu unli “i” harfi ishlatilganligi bilan ajralib turadi.

Kavkabi “Risolai musiqiy”ida Ufor doirasini uch zarba va olti naqra, bitta sabab-i xafif va bita fasila-yi sug'radan iborat deb ta'riflab, “tan tananan” shaklida keltiradi. Demak, muallifi noma'lum risola bilan Kavkabi risolasida Ufor usulining

² Джумаев А. Наджм ад-Дин Кавкаби Бухари: поэт, музыкант, ученый XV-XVI вв. Жизнь и творчество (исследования и переводы) Ташкент.: 2016.

ritmik ko‘rinishida farq mavjud: birida “tan-tinan-tan-tinan”, ikkinchisida “tan-tananan”.

3. Turk zarb usuli - Risolada “Turki zarb” bahri haqida quyidagi ma’lumot berilgan: “Va yana Turki zarb bahrini yasab uni 12 naqraga quyidagidek bo’ldi: tan, tanin, tanin, tan, tanin, tanin, tan”. Kavkabiyy esa “Turk zarb” doirasini to‘rt zarba va yigirma naqra, ikkita sabab-i xafif va fasilayi sug‘radan tashkil topgan deb ta’riflab, “tan tananan tananan tan” shaklida keltiradi.

Jomiy o‘z risolasida³ “Turkiy davr” (turkcha ritm) to‘rt ko‘rinishga ega ekanligini batafsil yoritadi:

- Yangi turkiy (turkiy asl jadid): yigirmata naqra, to‘rtta fasila va ikkita yengil sababdan tashkil topgan.

- Qadimiy turkiy (turkiyi asli qadim): yigirma to‘rt naqra, yangi turkiyga o‘xshash, faqat bitta fasila oxirgi sababdan keyin qo‘shiladi.

- Yengil turkiy: o'n ikki naqradan tashkil topgan.

- Tez turkiy (turkiy sari’): olti naqradan iborat, ikkita vatadadan tashkil topgan.

Jomiyning tadqiqotiga ko‘ra, “Turk zarb”ining to‘rt xil ko‘rinishi mavjud bo‘lib, Kavkabiylar va muallifi noma’lum risolada esa “Turk zarb”i bir ko‘rinishda tasvirlangan.

4. Muxammas usuli - Risoladagi keyingi usul Muxammas bo‘lib, muallif uni yigirma bo‘limga bo‘linadi deb quyidagi ritmik ko‘rinishni keltiradi: tanin, tanin, tanin, tan, tan, tan, tan, tanan, tan tanan.

Kavkabiyl o'z risolasida Muxammas doirasini besh zarb va yigirma naqradan, to'rtta sabab-i xafif va to'rtta vatad-i majmu'dan iborat deb ta'riflab, "tan tanan tan tanan tan tanan tan tanan" shaklida keltiradi. A. Rajabov tarjimasida esa "tan tananan tan tanan tan tanan tan tanan" ko'rinishi berilgan.

Jomiy o‘z risolasida Muxammasni uch ko‘rinishda tasvirlaydi:

- Katta muxammas (muxammasi kabir): o‘n olti naqra, to‘rtta vatad va ikkita yengil sababdan tashkil topgan.

³ Абдурахман Джами **“Трактат о музыке”** Перевод с персидского А. Н. Болдырева. Ташкент. 1960 Б. 61-62.

- O'rtta muxammas (muxammasi avsat): sakkiz naqra – katta muxammasning yarmi.

- Kichik muxammas (muxammasi sigir): to'rtta naqradan iborat.

Qiyosiy tahlil natijalari: Tadqiqot davomida “Siratu asrori il-Ilohiyya” risolasidagi ma'lumotlar Kavkabiyy, Jomiy va Xusayniy risolalari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar quyidagi jadvalda jamlangan:

	Risola	Kavk abiy	Jomiy	Xus ayni
<i>Xazaj</i>	<i>tan,</i> <i>tanani, tan,tan,</i> <i>tanani, tan,</i> <i>tanani, tan.</i>	<i>tan,</i> <i>tanani tan.</i>	<i>yo'q</i>	<i>yo'q</i>
<i>Tez Xazaj</i>	<i>yo'q</i>	<i>yo'q</i>	<i>tana-tana-tana</i>	<i>yo'q</i>
<i>Yenil Xazaj</i>	<i>yo'q</i>	<i>yo'q</i>	<i>tan,tan, tan</i>	<i>yo'q</i>
<i>Og'ir Xazaj</i>	<i>yo'q</i>	<i>yo'q</i>	<i>tanani,tanani,</i> <i>tanani</i>	<i>yo'q</i>
<i>Ufo</i>	<i>tan,</i> <i>tanin, tan</i> <i>tanin.</i>	<i>tan</i> <i>tanani</i> <i>.</i>	<i>yo'q</i>	<i>yo'q</i>

Yan gi Turki	yo'q	yo'q	tan, tananan, tananan, tananan, tananan, tan	yo'q
Qad imiy Turkiy	yo'q	yo'q	tan, tananan, tananan, tananan, tananan, tan, tananan	yo'q
Yen gil Turkiy	yo'q	yo'q	tan, tan, tananan, tananan	yo'q
Tez Turkiy	yo'q	yo'q	tan, tan	yo'q
Mux ammas	tanin, tanin, tanin, tan, tan, tan, tan, tanan, tan tan	tan, ta nan, tan, tan, tan, tan, tan, tan	yo'q	yo'q
Katt a Muxamma s	yo'q	yo'q	tan, tan, tan, tan, tan, tan	yo'q
O'rt a Muxamma s	yo'q	yo'q	tan, tan, tan	yo'q

Kic hik Muxamma s	yo‘q	yo‘q	tananan	yo‘q

Xulosa qilganda, “Siratu asrori il-Ilohiyya” risolasining ritmik doiralarga bag‘ishlangan yettinchi bobi tahlili shuni ko‘rsatadiki, XV-XVI asrlarga kelib Sharq musiqashunosligida ritm nazariyasi yuksak darajada rivojlangan. Risolada keltirilgan Xazaj, Ufor, Turk zarb va Muxammas kabi usullar nafaqat musiqa nazariyasi, balki she‘riyat (aruz) bilan ham chambarchas bog‘liq holda tahlil qilingan. Qiyosiy tahlil natijasida Kavkabiyyda keltirilgan doiralar atamalarida yaxlitlikni kuzatish mumkin, Jomiy va Xusayniy risolalarida keltirilgan nazariy qarashlarda ham (ba’zi tafovutlarni inobatga olmaganda) yaxlitlik mavjud. Bu esa o‘rta asrlar musiqiy merosining uzviyligi va o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. “Siratu asrori il-Ilohiyya” risolasi ushbu boy merosni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. No ma’lum muallif, №8739/III: Risolaning nomi ham noma’lum. Qo‘lyozma, O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti №8739/III, B. 105-111.
2. Джумаев А. Наджм ад-Дин Кавкаби Бухари: поэт, музыкант, ученый XV-XVI вв. Жизнь и творчество (исследования и переводы) Ташкент.: 2016.
3. Абдурахман Джами “Трактат о музыке” Перевод с персидского А. Н. Болдырева. Ташкент. 1960 Б. 61-62.
4. Фитрат А. «Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи» Тошкент. 1993
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11 ж., - Тошкент, 2005.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5 ж., – Тошкент, 2003.